

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 330.3:658 (575,1)

NAZAROVA ASAL NURIDDIN QIZI

SANOAT ISHLAB CHIQRISHIDA XORIJIY
INVESTITSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

70310102 – “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)”
mutaxassisligi bo‘yicha
magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
i.f.d. (DSc), prof.v.b.
D.I. Ro‘ziyeva

TOSHKENT - 2024

ANNOTATSIYA

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, sanoat ishlab chiqarishini jahon standartlari doirasida amalga oshirishda muhim o‘rin tutayotgan xorijiy investitsiyalar va ulardan samarali foydalanish, davlat tomonidan investitsion muhitni takomillashtirish va bu orqali iqtisodiyot tarmoq va sohalarini rivojlantirish masalasi davlat siyostining strategik yo‘nalishlaridan biridir.

Iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiyalardan samarali foydalanishni tashkil etish va uni jalb qilishga qaratilgan nazariy materiallar va amaliy tahlil natijalarini ahamiyatini ochib berish maqsadida mavzuimiz doirasida tadqiqot olib bordik. Mavzuimiz doirasida olib borilgan tadqiqot ishlari, mahalliy xorijiy adabiyotlarni o‘rganib chiqdik. Ilmiy ishimizda nafaqat nazariy fikrlar, balki mintaqa iqtisodiyoti va sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish amaliyoti tahlili o‘rganildi. O‘rgangan ma’lumotlarimiz va tahlil natijalarimizdan kelib chiqib, mintaqa sanoatini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati dolzarb ekanligini va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali samaraliroq foydalanish yuzasidan xulosa hamda takliflar ishlab chiqdik.

Kalit so‘zlar: kapital, investitsiya, FDI (to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya), investor, investitsiya loyihasi, investitsion jozibadorlik, infratuzilma, strategiya, qiymat zanjiri, distribyutor, transmilliy korporatsiyalar, eksport, import, monopoliya.

ANNOTATION

The development of the country's economy, foreign investments, which play an important role in the implementation of industrial production within the framework of world standards, and their effective use, the improvement of the investment environment by the state and, through this, the issue of the development of economic sectors and sectors are one of the strategic directions of the state policy.

In order to reveal the importance of theoretical materials and results of practical analysis aimed at organizing and attracting effective use of investments in economic sectors, we conducted research within our topic. We studied the research work carried out within the scope of our topic, local and foreign literature. In our scientific work, not only theoretical ideas, but also the analysis of the practice of attracting foreign investments to the economy and industry of the region were studied. Based on the information we learned and the results of our analysis, we concluded that the importance of foreign investment in the development of the regional industry is urgent and that it can be used more effectively through state support.

Keys words: capital, investment, FDI (foreign direct investment), investor, investment project, investment attractiveness, infrastructure, strategy, value chain, distributor, transnational corporations, export, import, monopoly.

MUNDARIJA

ANNOTATSIYA.....	3
MUNDARIJA	5
KELTIRILGAN JADVALLAR RO‘YHATI	6
KELTIRILGAN RASMLAR RO‘YHATI	7
KELTIRILGAN QISQARTMALAR.....	8
KIRISH.....	9
<i>Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....</i>	<i>11</i>
<i>Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....</i>	<i>12</i>
<i>Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari</i>	<i>13</i>
<i>Tadqiqot obyekti va predmeti.....</i>	<i>15</i>
<i>Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:</i>	<i>15</i>
<i>Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi</i>	<i>15</i>
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	16
1.1. Kirish	16
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar	17
1.3. Mahalliy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	20
II BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....	24
2.1. Tadqiqot dizayni.....	24
2.2. Ma‘lumotlarni to‘plash jarayoni	24
2.3. Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	25
2.4. Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....	25
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	26
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	28
3.1. Mamlakat sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish amaliyoti tahlili.....	28
3.2. Xorijiy investitsiyalar asosida faoliyat yuritayotgan to‘qimachilik korxonalarini tahlili	42
3.3. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta‘minlashda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish istiqbollari	55
XULOSA.....	60
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	64

KIRISH

Sanoat ishlab chiqarishi jahon iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u doimo rivojlanib bormoqda. Raqobatbardoshlikni saqlab qolish va biznesni rivojlantirish uchun ishlab chiqarish obyektlari eng so'nggi tendensiyalarga mos kelishi kerak. Bunda investitsiyalarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi va bu borada mamlakatimizda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlovchi yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish va tashkil etishga qaratilgan investitsiya siyosatini yanada faollashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvini ta'minlash ko'p jihatdan tog'ri va asoslangan investitsiya siyosatiga bog'liq. Mamlakatimizda investitsion faoliyatni iqtisodiy muhit shart-sharoitlariga muvofiq rivojlantirish, ularni jamiyat iqtisodiy hayotining barcha jabhadagi faolligini ta'minlash, milliy ishlab chiqarish jarayonining modernizatsiyalashuvi hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham hukumatimiz tomonidan har yili amalga oshirib kelinayotgan islohotlarning kun tartibidagi asosiy manbalardan biri bo'lib, investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish masalasi turibdi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo sohasidagi yangi strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisoblanadi. Hozirda O'zbekiston 47 ta davlatlar bilan investitsiyalarni o'zaro himoya qilish bo'yicha bitimlarni imzolagan. O'zbekiston Respublikasi Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta Fondi, Islom taraqqiyot banki kabi qator xalqaro moliya tashkilotlarining